

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
“O‘ZBEKISTON
MILLIY ELEKTR
TARMOQLARI”
AKSIYADORLIK JAMIYATI

100084, Toshkent sh., Yunusobod t., Osiyo k., 42.
Tel: (998-71) 208-56-01, Faks: (998-71) 208-56-60
e-mail:info@uzbekistonmet.uz
Veb-sahifa:www.uzbekistonmet.uz



THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
JOINT STOCK COMPANY
“NATIONAL
ELECTRIC GRID
OF UZBEKISTAN”

42, Osiyo str., Yunusobod dist.; 100084, Tashkent
Ph: (998-71) 208-56-01, Fax: (998-71) 208-56-60
e-mail:info@uzbekistonmet.uz
Web-site:www.uzbekistonmet.uz

2024-yil 5-aprel
01-05-33/1686-son

**Sirdaryo viloyati Sirdaryo shahri
Shirin MFY Ziyolilar
ko‘chasi 288A-uyda yashovchi
X.M. Xolmatovga**

nusxasi: **“Sirdaryo MET” filialiga**

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ Sizing 368/24-sonli murojaatingizni ko‘rib chiqib, bildirib o‘tilgan masala yuzasidan quyidagilarni ma‘lum qiladi:

Jamiyatimizning ichki buyrug‘iga asosan tuzilgan komissiya tomonidan mehnat faoliyatingiz uzluksizligi o‘rganilganda Energetika tizimida ish boshlagan vaqtingiz 2004-yil 4-oktabr deb noto‘g‘ri ko‘rsatilganligi va haqiqatda 1998-yil 3-avgust kundan boshlanganligi ayon bo‘ldi.

Yuqoridagi komissiya xulosasiga asosan Jamiyatning tegishli buyrug‘i chiqarilganligi va ushbu buyruq asosida jamiyat tasarrufida bo‘lgan "Sirdaryo MET" filiali tomonidan joriy yil aprel oyida mehnat faoliyatingiz uzluksizligi bo‘yicha qayta hisob-kitob qilinib, qo‘shimcha to‘lovlar amalga oshirilishini bildiramiz.

Murojaatingiz yuzasidan Sizga berilgan mazkur javob xatidan norozi bo‘lsangiz, O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq yuqori turuvchi organlarga murojaat etish huquqingiz mavjudligini eslatib o‘tamiz.

**Boshqaruv raisi
o‘rinbosari v.b.**



A. Yuldashev